

This is not registered version of TotalDoc Converter

Sahifani degan qiziqchi bo'lmasmish haqida. Aniha menga bu ikki so'z negadir egizakday ko'rindi. Bu, hoynahoy, velosipedini o'g'irlatmagan qiziqchi bo'lmasganini surishtirib bilganim va bul haqda qiziqchi bo'lish uchun velosiped o'g'irlatish kerak yo velosiped o'g'irlatgan odam qiziqchi bo'ladi, deya olamshumul xulosa chiqorganim sabab bo'lsa kerak.

Oxunjon qiziq yangi velosiped olibdi. Buni ko'rib og'aynilari, "Yuvaylik, yuvaylik!" deyishib, qiziqnini oshxonaga sudrashibdi. Xo'p, "yuvib" qaytib chiqishsa, qiziqning yap-yangi velosiped o'rnida g'ildiraklari qiyshayib ketgan, egari, qanotlari yo'q bir balo narsa turganmishBda! Hatto uni minib ham bo'lmasmish. Oxunjon qiziq uni yetaklab yo'lga tushibdi. Dam o'tmay:

- Yuvaylik, yuvaylik! - degan xitoblar eshitibdi.

Qiziq qo'li ko'ksida, boshini tasdiq ishorasi qilib qimirlatgancha javob qilibdi:

- Yuvdik, yuvdik. Savobtalablar bo'lsa, yuraversin, ko'mgani ketyapman, ko'mgani!

* * *

Tesha qiziqning ham velosipedini o'g'rilar urib ketibdi-da! Melisaxonaga qatnashni boshlabdi, velosipedimni topib beringlar deb. Vey, sizlarga yolg'on, menga rost, rosa elliq marta melisaxonaga boribdi, natija yo'q.

Bir kuni odamlar qarashsa, Tesha qiziq yo'l bo'yidagi qabristonda o'tirgannish.

- Ha, Teshavoy aka, qabristonda nima qilib o'tiribsiz? - so'rashibdi yo'lovchilar.

- O'g'ri ni ushslashlarini ko'rmoqchiman, - javob beribdi qiziq.

- Ie, o'g'ri ni qabristonda ushlashadimi? - odamlar hayron bo'lishibdi.

- Bu melisalaring, o'g'ri o'lib shu yerga kelganda ushslashmasa, boshqa paytda ushlasholmaydi! - dermish qiziq.